

SOME ISSUES OF PREPARING FUTURE FINE ART TEACHERS FOR INNOVATIVE ACTIVITIES

Samandar Bakhridinovich Muranov,
Lecturer, Department of Fine Arts and Engineering Graphics, Samarkand State University
s.muranov@ru

Annotation:

This article addresses the requirements of professional and pedagogical training in higher education institutions for future students of bachelor and master degrees. Examples of graphic and technological pedagogical activity for educational, scientific, research, methodological, and spiritual educational work are given. Some examples of innovative activities in the training of former teachers of visual arts.

Key words: specialists, teacher, innovation, professional, graphic activity, technological activity, bachelor, master, study, scientific and methodical, spiritual education, students, training.

O'zbekiston oliy o'quv yurtlarining ko'pchiligiga mustaqil oliy dargoh maqomining berilishi ko'plab o'quv me'yoriy hujjatlarning mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda qaytadan tashkil etilishi, o'quv metodik majmualarning qaytadan takomillashgan holda ishlab chiqilishi, tarqatmali va ko'rgazmali vositalarning elektron variantlarning tayyorlanishi, ko'plab metodik hujjatlarning tayyorlanishi, bevosita ishlab turgan o'qituvchilarga qo'yiladigan yangilangan talablarning turli ko'rinishlaridan hisoblanadi.

Mamlakatdagi oliy o'quv yurtlarining viloyatlarda filiallarning ko'plab ochilishi ham ana shunday ijobiy o'zgarishlarga yaqqol misoldir. Xalq va qishloq xo'jaligida sanoat va san'atda, ma'naviyat, madaniyat va maorifda, mashinasozlik va qurilish sohalarida tubislohotlarning amalga oshirilishi ana shunday yangicha sharoitlarda tayyorlanayotgan kadrlarga yanada o'zgacha sharoitlarda kasbiy faoliyat ko'rsatishlarini taqozo etadi.

Bo'lg'usi mutaxassis o'qituvchilarni yangilangan sharoitlarda kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning tarbiyalanganlik tomonlariga ham e'tibor berish lozim bo'ladi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 20-aprelda tasdiqlagan "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarorida shunday deyiladi: ..., "Oliy ta'limning ma'naviy ahloqiy mazmunini oshirish talaba yoshlarga mustaqillik g'oyalarga yuksak ma'naviyat va insonparvarlikning milliy an'analariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish ularda yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli, ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish"(1.3b). Demak, ushbu iqtibosda bo'lg'usi mutaxassislarni oliy o'quv yurtlarida tarbiyalash ishlarini yanada kengroq ko'lamda olib borishni rivojlantirish nazarda tutiladi.

Ammo, oliy o'quv yurtlarida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarda, "Talabalarda tarbiyalash, qayta tarbiyalash ishlarini olib borish, mutlaqo shart emas, chunki ular shakllangan shaxslardir. Bu haqda ularning fuqarolik pasportlari bor. Ularning tarbiyasi to'g'risida oilasi, mahallasi mas'uldir, oliy o'quv yurtlari esa tarbiya uchun vaqt sarflab yurishi shart emas. Ko'proq ularning mutaxassislik ta'limi bilan shug'ullanishlari lozim" degan bir tomonlama g'oyalarni ilgari suruvchilar ham mavjud.

Masalan, "Maqsadlar uchburchagining mazmunini, maqsadi vazifalarini belgilashda 2018-2019 o'quv yilida 4 bosqich talabalari tahsil olayotgan 2012 yilda chiqarilgan,5110800- tasviriy san'at va



muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan 4 yillik bakalavriyat o'quv rejasini tahlil qilib ko'riqli quydagilar ma'lum bo'ladi. Umumiy soatlar 9288 soat shundan, oliy o'quv yurtining jamiyatning umumiy tayyorgarlik maqsadlariga mo'ljallangan 1-blokdagi "Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlari" 12-15 nomdan iborat bo'lib 1584 soatga ega. Bunda bulg'usi mutaxassisning tarixiy xuquqiy, falsafiy, ma'naviy, madaniy, siyosiy, estetik, etikaviy tushunchalarni kelgusida bilim ko'nikma va malakalarni ongini, dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish mo'ljallangan. Chunki, o'qituvchilik kasblari turkumiga kiradigan tasviriy san'at va muhandislik grafikasi, 5110800 ta'lim yo'nalishi tayyorlanayotgan ushbu kadrlar uchun ham yuqoridagi bilim ko'nikma va malakalar dunyoqarshi saviya sifatini shakllantirish muhim omillardan hisoblanadi. Vaholangki, kasb egalari ham kelgusida tarbiyalanuvchilarning ongini, ruhiy dunyosini mukammallashtirish bilan shug'ullanadilar. Shuning uchun, avvalo, o'zlarida shunaqa ong va dunyoqarash to'liq shakllangan bo'lishi lozim bo'ladi.

Ushbu o'quv reja 3 va 4-bloklarida keltirilgan "Umumkasbiy va ixtisoslik" kabi fanlarga tegishli 660 soat 3732 soat ajratilgan bo'lib, dastlabki blokda 13-16 nomdagi va keyingi blokga 6-7 ta fanlar ajratilgan. Shuningdek ushbu fanlarga qo'shimcha fanlar 450 soat (5-blok) va malaka amaliyotiga 756 soat bitiruv malakaviy ishlariga 270 soat (ushbu soatlar Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va oliy o'quv yurtlari rektorlarining buyrug'i bilan 2018-o'quv yilidan boshlab, bajarilmaydigan qilib tashkil etildi va boshqa bloklarga qo'shib yuborildi), attestatsiyalarga 918 soat ajratildi. Ushbu bloklardagi ba'zi fanlar, masalan 2- blokda "plastik anatomiya" 136 soat, yosh fiziologiyasi va gigienasi (68soat) 3-blokdagi "umumiy psixologiya" 300soat, "umumiy pedagogika"-336 soat. "kompyuter grafikasi" 140 soat, 5-blokdagi "Tibbiy bilim asoslari (260 soat) kabi fanlar kafedra maqsadlariga taalluqli bo'lsada, fakultet va oliy o'quv yurti maqsadlariga qo'shib yuborilgan va boshqa ixtisoslashgan fakultetlararo tashkil etilgan kafedralar ixtiyoriga berib yuboriladi hamda ular tomonidan o'tkazilishi rejalashtiriladi.

Ushbu bloklardagi umumkasbiy va ixtisoslik bilim, ko'nikma, malakalarni o'rgatishga mo'ljallangan "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi" (276 soat) va "chizmachilik" (386 soat), "chizma geometriya" (252 soat) Tasviriy san'at va muhandislik grafikasini o'qitishda texnologiyalar va loyixalashtirish (158 s), arxitektura va qurilish chizmachiligi (190 s) kabi fanlar bevosita ushbu fanlarni o'qitish va o'rgatish metodikalarini, metodlarini, usullarini takomillashtirishga mo'ljallangan. Albatta, ko'pchilik hollarda, oliy o'quv yurtini tugallagan mutaxassislar, muhandislar, agronomlar, quruvchilar, san'at ahlari (tasviriy, amaliy, musiqa san'ati va haykaltaroshlar va boshqalar) uzluksiz ta'lim muassasalarida ishlab qolsalar, ya'ni, pedagogik ta'lim-tarbiya faoliyati bilan shug'ullansalar, ushbu, pedagogik, psixologik, metodik yo'nalishdagi fanlarni o'rganishdan olingan bilim, ko'nikma, malakalar zarur bo'ladi. Ammo, hozirgi sharoitlarda uzluksiz ta'lim muassasalarida pedagogik, ta'lim -tarbiya faoliyati bilan shug'ullanayotgan san'atshunos olimlar, tasviriy va amaliy san'at, chizmachiliklari, hatto, ilmiy darajali, davlat unvonlariga va mukofatlariga sazovor bo'lgan oliy va yuqori darajadagi toifalarda maosh olayotgan mutaxassis kadrlar ham muammoning ushbu tomonlariga e'tibor beravermaydilar. Shuning uchun ana shu kasbiy bilim, ko'nikma, malakalari va mahorat darajalari pedagogik kompetentlikka mos kelmaydigan "kadrlar" pedagogik faoliyat bilan shug'ullansalar, ko'pincha korrupsiyani keltirib chiqaradilar, ya'ni, o'z talabalarining, bitiruvchilarining bilim, ko'nikma, malakalarining o'zlashtirish darajalarini hamisha aniq tasavvur qila olmaydilar, pedagogik jarayonni aniq loyihalashtirib ulgurmaydilar. Shuning uchun pedagogik faoliyat bilan shug'ullanayotgan har bir mutaxassisning metodik, psixologik, pedagogik innovatsion bilim, ko'nikma, malakalarga va mahorat darajalariga ega bo'lib borishlari rejalashtirishi lozim bo'ladi. Ya'ni, ular agarda pedagog nomutaxassis bo'lsalar, pedagogik, psixologik qayta tayyorlashdan o'tkaziladi yoki, pedagogik



ma'lumotga ega bo'lsalar, innovatsion kasbiy-pedagogik malaka oshirish kurslaridan har 3-5 yilda o'tkazib boriladilar.

Yuqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, ushbu tadbirlar juda xilma-xil va rang-barangdir. Ularning o'tkazilish joylari va maqsadlari, vazifalari, vaqtlari ham, hajmi va turlari ham ko'pdir. Ular ba'zi hollarda shunchalik tartibsiz bevaqt o'tkaziladiki, asosiy, o'quv jarayoniga ham salbiy ta'sir etib qolishi mumkin. Demak, Oliy ta'lim nazariyotchilari, tashkilotchilari va amaliyotchilarining dolzarb vazifalaridan asosiylari shundan iboratki, ushbu tadbirlarning qaysi, qachon, qaerda, nima maqsadda o'tkazilishi, aniq belgilanishi, 4 yil mobaynida qat'iy kunma-kun, soatma-soat tartibga solinishishi, maqsadi va vazifalari, o'tkazilishi muddati va joyi oldidan belgilanishi lozim bo'ladi. Ana shundagina ushbu tadbirlar "maqsadlar uchburchagiga" xizmat qiladi va hozirgidek asosiy jarayonga halaqit berib qolmaydi.

O'quv-me'yoriy hujjatlarni xatolar bilan yuritadilar, ko'pchilik hollarda ijodkorlik innovatsion faoliyat yurita olmaydilar masalan, oliy o'quv yurtlarida yoki o'rta maxsus kasb –hunar yurtlarida faoliyat yuritayotgan tasviriy san'at o'qituvchilari kasbiy faoliyatidan kelib chiqilsa, ulardan o'quv yili boshida, o'quv, o'quv uslubiy, tashkiliy uslubiy, ilmiy tadqiqot va ma'naviy –ma'rifiy ishlarni (asosiy va qo'shimcha soatlarni) bajarish, rejalashtirish talab etiladi.

Ushbu ishlardan asosiysi o'quv soatlarini bajarish o'qituvchi yillik dars yuklamasi hisoblanadi. Uni bajarish uchun bakalavriat o'quv rejasidagi 9288 soatlik o'quv jarayonidan va magistrlik o'quv rejasidagi 4560 soatlik (shundan 2420 soat o'quv soatlari) o'quv jarayonidan o'tadilar. Bu hol tushunarli albatta, ammo, yuqoridagi "Vaqt me'yorlarida" ko'rsatilgan hamda o'quv soatlari bilan deyarli teng holda bajarilishi talab etilayotgan o'quv, uslubiy, tashkiliy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-marifiy kabi qo'shimcha soatlarni bajarish uchun tayyorgarlik tayanchini bundan o'qituvchilar qaerdan oladi? Ayniqsa keyingi paytlarda oliy o'quv yurti professor o'qituvchilariga rahbariyat tomonidan ilmiy tadqiqot va metodik ishlari bilan shug'ullanishlarini deyarli "Majburiy talablar" sifatida qo'yilmoqda. Balkim, oliy o'quv yurti o'qituvchisi "imidji"da (maqomida) ilmiy darajaga va ilmiy unvonga ega bo'lishlari uchun bu talablar amalga oshirilishi zarurdir, albatta.

Ammo, asosiy masalaning ikkinchi tomoni kelib chiqadi, ya'ni, professor-o'qituvchilarning barchasi ham, ilmiy-tadqiqot va metodik ishlarni bajarishga layoqatlimilar? yoki ular ushbu ishlarni bajarishlari uchun qanday tayyorgarlik "tayanchi"dan, jarayonidan o'tganlar? Ya'ni ular ushbu ishlarni bajarish texnologiyalaridan qanchalik darajada xabardorlar? Yoki, yosh murabbiy o'qituvchining talabalar akademik guruhlariga rahbarlik qilishlarida amalga oshirilayotgan ko'plab ma'naviy –marifiy ishlarining to'lovlari, mezonlari aniq belgilanganmi? Ushbu mezonlar sotsiologik, iqtisodiy tadqiqotlar natijasida xaqqoniy chiqarilganmi? Demak bo'lg'usi tasviriy, amaliy san'at o'qituvchilarini kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyalari yangilanib borar ekan, yuqoridagi omillar e'tiborga olinishi uchun bir qancha xulosalar, taklif va mulohazalarni keltirish mumkin, va bu jarayonning o'zi ham alohida tadqiqotlar o'tkazishga mansub deb hisoblanadi. Ushbu jarayonni yanada takomillashtirish quydagi xulosalarni taklif va tavsiyalarni keltirish mumkin.

1. Bo'lg'usi mutaxassis kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirishda har bir sohaning iqtisoslikning o'ziga xosligini hisobga olish va bu jarayonda kafedra, fakultet oliy o'quv yurti maqsadlari ijtimoiy buyurtma mazmunida o'z o'rnini topishi lozim.

2. Bo'lg'usi o'qituvchi mutaxassislarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda ularning ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishlarida ishtirok etishlari lozim bo'ladi. Chunki, pedagogik jarayon ko'plab nostandart vaziyatlardan tarkib topgan hisoblanadi. O'qituvchilar esa ko'pchilik hollarla ana shunday holatlarni taxmin kuzatishga, umumlashtirishga, tayyorlangan holda borishlari zarur bo'ladi.



3. Pedagogik faoliyatda ko'plab rasmiy, norasmiy metodik me'yoriy o'quv hujjatlarini yuritish lozim bo'ladi. Shuning uchun bo'lg'usi o'qituvchilarni dastlabki bosqichlardanoq turli hujjatlarni yuritishga, yaratishga, tuzatishga (tahrir qilishga) tayyorgarliklarini ta'minlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Sh.M. Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. Toshkent, 2017-yil, 20-aprel, PQ 2909-son.
2. B.I. Bepalko, V.P. Tatur, Yu.G. Sistemno – metodicheskoy obespechenie uchebno – vospitatel'nogo protsessa podgotovki spetsialistov. Moskva. Vysshaya shkola. 1989 g 142 st
3. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 5110800 tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi 2018 yil o'quv rejasi.